Axborot xizmati

AXBOROT XIZMATI

Image not found or type unknown Xojanov Bektursin Muxtarovich	Raxbar	Xojanov Bektursin Muxtarovich
	El.pochta:	pressa.rk@umail.uz
	Telefon:	0(361) 222-92-72
	Manzil:	203103, Nukus shahri, G'arezsizlik ko'chasi, 50 uy

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Axborot xizmati xodimi (Matbuot kotibi) Ommaviy axborot vositalari bilan aloqada bo`ladi. U o`z faoliyatida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlarini, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qaror va farmoyishlarini hamda boshqa ma`lumotlarni vazirlik veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida belgilangan tartibda e`lon qilib borishni ta`minlaydi.

Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

q a r o r i

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar

sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat o'rtasida sifatli muloqotni yo'lga qo'yish, aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot etkazish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini oshirish, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash maqsadida:

1. 2019 yil 1 oktyabrdan e’tiboran shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq bolalar adabiyotlari, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan mahsulotlar chop etishga ixtisoslashgan nashriyotlar noshirlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.

2. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari (keyingi o'rinlarda – davlat organlari va tashkilotlari)ning ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik va aholini xabardor qilish sohasidagi faoliyati qoniqarsiz deb topilsin.

3. Quyidagilar davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, matbuot markazlari, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha xizmatlari (keyingi o'rinlarda – axborot xizmatlari)ning asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat organlari va tashkilotlari faoliyati haqidaommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etish yo'li bilan aholiga muntazam, to'liq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish;

davlat organlari va tashkilotlarida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy

taraqqiyoti jarayoni haqida axborot berish va yoritish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat organlari va tashkilotlarining ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o'rganish;

axborot siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va blogerlar doirasida tezkor ma'lumotlarni tarqatish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda keng aholi qatlamlarining ishtirokini ta'minlash maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirish;

muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining chiqishlarini tashkil etish;

axborot makoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'ida tegishli davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil qilish;

davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish uchun xabar, ma'lumot, sharh va boshqa axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;

davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati to'g'risida jamoatchilik fikrini, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasini o'rganish, dolzarb takliflar ishlab chiqish va ular to'g'risida davlat organlari va tashkilotlari rahbariyatiga axborot berib borish;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida sifatli yoritish maqsadida vakolatli vazirliklar va idoralar orqali O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (bosma mahsulotlar, foto-, audio-, videomateriallar va h.k.)bilan ta'minlash;

davlat organlari va tashkilotlarining vakolatiga kiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari hamda ularning tasdiqlangan matnlarini belgilangan tartibda o'z rasmiy veb-

saytlarida joylashtirish;

davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatiga aloqador matnli, foto-audio- va videomateriallardan iborat ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borish.

4. Belgilab qo'yilsinki:

a) davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari xodimlari ustuvor ravishda jurnalistika sohasida oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar orasidan lavozimga tayinlanadi;

b) davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlari:

bir vaqtning o'zida davlat organi va tashkiloti rahbarining matbuot kotibi hisoblanib, axborot siyosati masalalari bo'yicha rahbarning maslahatchisi maqomiga ega bo'ladi hamda mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shartlariga ko'ra davlat organi va tashkiloti rahbarining o'rinbosariga tenglashtiriladi;

tegishlicha Agentlik yoki uning hududiy bo'linmalari xulosasini hisobga olgan holda lavozimga tayinlanadi;

har uch yilda Agentlikda attestatsiyadan o'tadi;

v) davlat organlari va tashkilotlarining markaziy apparatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimliklari tuzilmalarida axborot xizmati nazarda tutilishi shart.

Davlat organlari va tashkilotlarining markaziy apparatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklaridagi axborot xizmatlari xodimlarining soni, qoida tariqasida, ularning shtat birliklari doirasida shakllantiriladi hamda matbuot kotibi bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan aloqalar, veb-resurslar va ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash uchun mas’ul xodimlardan iborat bo'ladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining markaziy apparatlaridagi axborot xizmatlari xodimlarining soni tegishli idora faoliyatining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda uning rahbari tomonidan belgilanadi.

Davlat organlari va tashkilotlarining idoraviy va hududiy bo'linmalari axborot xizmatlari faoliyatini tashkil etish tegishli idoralarning ehtiyojidan kelib chiqib belgilanishi mumkin.

g) davlat organlari va tashkilotlarining axborot faoliyatini muvofiqlashtirib borish Agentlik

tomonidan amalga oshiriladi.

d) Quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlariga ularning xizmat majburiyatiga kirmaydigan qo'shimcha majburiyatlarni yuklashga;

axborot xizmatlarining funktsiyalari va vazifalarini davlat organlari va tashkilotlarining boshqa bo'linmalari zimmasiga yuklashga;

e) davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari:

axborot xizmatlarining zamonaviy moddiy-texnika vositalari, shu jumladan, televizor, foto- va video yozib olish vositalari, yuqori tezlikdagi Internetdan foydalanish imkoniyati, zarur dasturiy mahsulotlar bilan ta'minlanganligi, shuningdek, malakali mutaxassislarni jalb qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

axborot xizmatlari xodimlariga, boshqa to'lovlardan qat’iy nazar, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hamda davlat organlari va tashkilotlarining o'z mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lash fondining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda oylik ustama to'lashga haqlidir;

j) axborotlar davlat organlari va tashkilotlarining veb-saytlarida, ijtimoiy tarmoqlarda, mobil messenjerlardagi sahifalarida kuniga kamida bir marta joylashtirilishi va yangilanishi lozim.

5. Davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini monitoring qilishning samarali tizimini joriy etish, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha ishlarini tashkil etishda ularga ko'maklashish, shuningdek, axborot xurujlariga tezkorlik bilan javob qaytarish maqsadida Agentlikning davlat organlarining axborot xizmatlarini muvofiqlashtirish bo'limi Agentlik markaziy apparati boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy sonini tegishlicha oshirib, 5 ta shtat birligini qo'shimcha ajratgan holda Axborot xizmatlari faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish boshqarmasi sifatida qayta tashkil etilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmalarida 14 ta shtat birliklarini qo'shimcha ajratgan holda axborot xizmatlari faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish sektori tashkil etilsin.

6. Davlat organlari va tashkilotlar:

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish

vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda matbuot kotiblarini aloqa vositalari, jumladan, hukumat aloqasi, shuningdek, keng polosali Internet tarmog'iga ulanish imkoniyati bilan ta'minlasin;

davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari xodimlarini tajriba orttirish va xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari faoliyati bilan yaqindan tanishish, shuningdek, ularni axborot jihatdan ta'minlash uchun safar qiluvchi delegatsiyalar tarkibiga kiritish choralarini ko'rsin.

7. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tarkibiy bo'linmalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va idoralar, mutaxassislar va ekspertlarni jalb etgan holda qabul qilinishi rejalashtirilgan va qabul qilingan ijtimoiy ahamiyatga molik normativ-huquqiy hujjatlar qoidalarining, shuningdek, dolzarb masalalar bo'yicha kutilayotgan tashkiliy chora-tadbirlarning ommaviy axborot vositalarida va Internet tarmog'ida keng yoritilishini ta'minlasin.

8. Agentlik:

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va topshiriqlarining ijro etilishi haqidagi jamoatchilik fikrini, shuningdek, ularning ijrosi borasida ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'idagi veb-saytlarda davlat organlari va tashkilotlari e’lon qilgan materiallarni monitoring yo'li bilan doimiy ravishda o'rganib borsin va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralar ko'rish uchun tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga axborot (ko'rsatmalar) kiritsin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi hamda O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti bilan birgalikda davlat organlari va tashkilotlaridagi axborot xizmatlari xodimlari va rahbarlarining malakasini oshirish kurslarini tashkil etsin;

ikki oy muddatda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda axborot xizmatlari rahbarlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini, shuningdek, ularning ish samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

2020 yil 1 yanvarga qadar manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlarini qonun hujjatlariga muvofiq attestatsiyadan o'tkazsin;

davlat organlari va tashkilotlariga ular faoliyatining ochiqligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorligini yaxshilash, shuningdek, axborot xizmatlarini

uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha doimiy yordam ko'rsatib borsin;

ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va mobil messenjerlarda e’lon qilinayotgan aholining keng qatlamlari fikriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarning doimiy monitoringini amalga oshirsin hamda tegishli davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari munosabat bildirishi uchun ularga yuborsin;

davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlarining xodimlarini, shu jumladan, davlat mukofotlariga tavsiya etish orqali rag'batlantirib borish choralarini ko'rsin;

davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari reestrini shakllantirsin va uni doimiy yangilab borsin;

davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini, ularning malakali kadrlar, moddiy-texnik vositalari bilan ta'minlanganligi va zimmasiga yuklatilgan vazifalarning ijrosini o'rgansin.

9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

xorijda O'zbekistonning ijobiy imijini ilgari surish hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida targ'ibot qilish va jamoatchilikni keng xabardor qilishga qaratilgan axborot kampaniyalarini o'tkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasining axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan har yili 20 milliard so'm ajratilishini ta'minlasin;

har yili O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda Agentlik va uning hududiy bo'linmalari ta'minoti va moddiy-texnik jihozlanishi uchun mablag'larni nazarda tutsin.

12. Agentlikka tadbirlar (anjumanlar, brifinglar, “davra suhbatlari”, taqdimotlar va boshqalar)ni tashkil etish bilan bog'liq yuklatilgan vazifalarning lozim darajada bajarilishini ta'minlash maqsadida Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan ishlar (xizmatlar) etkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga istisno tariqasida ruxsat berilsin.

13. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xavfsizligi manfaatlaridan kelib chiqqan holda davlat organlari va tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarining Internet tarmog'idan foydalanishi, texnik xizmat ko'rsatilishi va ulanishi hamda ularning serverlari TAS-IX tarmog'iga joylashtirilishi bilan

bog'liq xarajatlarni kamaytirish choralarini ko'rsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ–4151-son qaroriga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi:

Agentlik, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019 yil 1 sentyabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ommaviy axborot vositalari va matbaa korxonalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, shuningdek, noshirlik faoliyatini litsenziyalash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish ma'muriy reglamentlari loyihalarini kiritsin;

ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ma'lumot taqdim etmaganlik yoki noto'g'ri ma'lumot taqdim etganlik, shuningdek, ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilganlik va jurnalistlarga bosim o'tkazganlik uchun javobgarlikni belgilash to'g'risida takliflar kiritsin.

16. Agentlik manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh.Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi

тPrezidenti Sh.MIRZIYOEV

Toshkent shahri,

2019 yil 27 iyun